



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 15-yanvar

VII-17-4-8-0-K/26

Surxondaryo viloyati

Termiz temir yo‘l suv ta‘minoti shu‘ba korxonasida ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari (tariflari)ni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi “Ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida” O‘RQ-784-son Qonunining 46-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari hamda 2023-yil 28-dekabrda O‘RQ-891-son Qonunining 4-moddasi 16-bandiga muvofiq, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalari va takliflarini inobatga olgan holda xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-sentabrdagi 22-19-10/53-sonli hamda Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish viloyat hududiy boshqarmasining 2025-yil 24-sentabrdagi 01-05/5748-sonli xulosa va Termiz temir yo‘l suv ta‘minoti shu‘ba korxonasining 2025-yil 18-noyabrdagi 10/03-25-sonli xatiga asosan viloyatdagi suv ta‘minoti xizmatlari uchun narx (tarif)larni belgilash to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullansin.

2. Termiz temir yo‘l suv ta‘minoti shu‘ba korxonasi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazib berilayotgan ichimlik suvi narx (tarif)lari 1-ilovaga hamda aholi uchun ichimlik suvidan suv o‘lchagichsiz foydalanish tariflari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Termiz temir yo‘l suv ta‘minoti shu‘ba korxonasi (G‘.Daminov) bir oy muddatda ichimlik suvi ta‘minoti bo‘yicha xizmatlardan foydalanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan belgilangan tartibda shartnomalar imzolasin.

4. Termiz temir yo‘l suv ta‘minoti shu‘ba korxonasi (G‘.Daminov) 15 kun muddatda Termiz temir yo‘l suv ta‘minoti shu‘ba korxonasi tomonidan toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanayotgan Termiz shahridagi 7 ta (“Yulduz”, “Temir yo‘lchi”, “Shifokor”, “Kokildor ota”, “Alisher Navoiy”, “Katta bog”, “Navro‘z”) mahallalarda ichimlik suvi narxining oshirilish sabablari to‘g‘risida targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borsin.

5. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2024-yil 19-iyunidagi “Termiz temir yo‘l suv ta‘minoti” shu‘ba korxonasida ichimlik suvi

va oqova suv xizmatlari narxlari (tariflari)ni belgilash to'g'risida" VI-86-108-8-0-K/24-son qarori bekor qilinsin.

5. Viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetalari tahririyati (S.Norqobilov)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingandan keyin o'n besh kun o'tgach kuchga kiradi.

Kengash raisi



**CHORIYEV
ABDURAIM
RAVSHANOVICH**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2026-yil 15-yanvardagi
VII-17-4-8-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Termiz temir yo‘l suv ta‘minoti shu‘ba korxonasi tomonidan jismoniy va
yuridik shaxslarga yetkazib berilayotgan ichimlik suvi narx (tarif)lari**

Xizmat turi	Iste‘molchilar	O‘lchov birligi	Belgilangan narx (QQS siz so‘mda)
Ichimlik suvi	Aholi uchun	1 m ³	2300
	Suv o‘lchagich bo‘lmasa	1 m ³	3450
	Temir yo‘l tashkilotlari uchun	1 m ³	3500
	Suv o‘lchagich bo‘lmasa	1 m ³	5250
	Budjet tashkilotlari uchun	1 m ³	3500
	Suv o‘lchagich bo‘lmasa	1 m ³	5250
	Ulgurji iste‘molchilar uchun	1 m ³	3500
	Suv o‘lchagich bo‘lmasa	1 m ³	5250

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2026-yil 15-yanvardagi
VII-17-4-8-0-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Termiz temir yo‘l suv ta‘minoti shu‘ba korxonasi tomonidan aholiga yetkazib berilayotgan ichimlik suvi va oqova suv xizmatlaridan suv o‘lchagichsiz foydalanish narx (tarif)lari

Odam soni	1 m ³ 3450 so‘m Ichimlik suv bilan ta‘minlangan uylar uchun 5,5 m ³ bir oyga- 5,5x3450=18975 so‘m		1 m ³ 3450 so‘m qo‘l yuvish va xo‘jalik uylar uchun suv hisobida 5,5 m ³ bir oyga- 5,5x3450 = 18975 so‘m		1 m ³ 3450 so‘m xammom, dush uchun suv hisobida 6,8 m ³ bir oyga- 6,8x3450=1 odamga 23460 so‘m		Hovlining yuzini sug‘orish uchun 4,95 m ³ suv hisobidan 1 m ³ -3450 so‘m 1 odamga=78487,50 so‘m		Ko‘kalamzorlarni sug‘orish uchun 50 m ³ 7 oy uchun		
	Bir oyga	Bir yilga	Bir oyga	Bir yilga	Bir oyga	Bir yilga	So‘tix yer uchun	Bir yilga 7 oy uchun	So‘tix yer uchun	Bir oyga	7 oy uchun
1 nafar	18 975,00	227 700,00	18 975,00	227 700,00	23 460,00	281520	1	17 077,50	1	24 633,00	172 431,00
2 nafar	37 950,00	455 400,00	37 950,00	455 400,00	46 920,00	563040	2	34 155,00	2	49 266,00	344 862,00
3 nafar	56 925,00	683 100,00	56 925,00	683 100,00	70 380,00	844560	3	51 232,50	3	73 899,00	517 293,00
4 nafar	75 900,00	910 800,00	75 900,00	910 800,00	93 840,00	1126080	4	68 310,00	4	98 532,00	689 724,00
5 nafar	94 875,00	1 138 500,00	94 875,00	1 138 500,00	117 300,00	1407600	5	85 387,50	5	123 165,00	862 155,00
6 nafar	113 850,00	1 366 200,00	113 850,00	1 366 200,00	140 760,00	1689120	6	102 465,00	6	147 798,00	1 034 586,00
7 nafar	132 825,00	1 593 900,00	132 825,00	1 593 900,00	164 220,00	1970640	7	119 542,50	7	172 431,00	1 207 017,00
8 nafar	151 800,00	1 821 600,00	151 800,00	1 821 600,00	187 680,00	2252160	8	136 620,00	8	197 064,00	1 379 448,00
9 nafar	170 775,00	2 049 300,00	170 775,00	2 049 300,00	211 140,00	2533680	9	153 697,50	9	221 697,00	1 551 879,00
10 nafar	189 750,00	2 277 000,00	189 750,00	2 277 000,00	234 600,00	2815200	10	170 775,00	10	246 330,00	2 463 300,00